

2. *World Bank. (2023). Enhancing Financial Capability and Consumer Protection in Emerging Economies. Washington, D.C.*
3. *Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2020). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44.*
4. <https://cbu.uz> – официальный сайт Центрального банка Республики Узбекистан.

## **O‘ZBEKISTONDA SOLIQ MEXANIZMLARIDAN KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA FOYDALANISH TAHLILI**

***Niyazmetov Islambek Masharipovich***

*Ma‘mun universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori*

***Xaydarov Alisher Akram o‘g‘li***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq tizimini takomillashtirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yo‘nalishlar mamlakat Konstitutsiyasida ham o‘z aksini topib, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan muhim vazifalar sifatida belgilangan. Xususan, Konsitutsiyaning 63-moddasida soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi kerakligi, 43-moddada esa davlat kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rishi to‘g‘risidagi normalar kiritildi.

2025-yil yakunida respublikamizda kambag‘allik darajasi 5,8 %ga tushdi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida kambag‘allikni 2026-yil yakuni bilan 2 karra qisqartirish bo‘yicha belgilangan rejani 2025-yilning o‘zida bajarilganidan kelib chiqib, 2030-yilgacha yangi maqsadlar belgilandi<sup>160</sup>. Xususan, 2030-yilga qadar soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 17,3 foizga yetkazish, kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida esa amaldagi minimal iste‘mol xarajatlari qiymati asosida “mutlaq kambag‘allikka” barham berish kabi ulkan maqsadlar belgilab olindi<sup>161</sup>.

Kambag‘allikni qisqartirish jarayonida aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish, daromadlar tafovutini qisqartirishda soliq siyosati muhim vosita hisoblanadi. Nazariy jihatdan qaraganda soliqlar mexanizmi orqali kambag‘allikka ta‘sir o‘tkazishning bir qancha usullari mavjud. Biz quyida ushbu mexanizmlardan mamlakatimiz soliq tizimida foydalanish darajasini tahlil qilib chiqamiz.

Aholi ixtiyoridagi real daromad miqdorini o‘zgartirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 3 baravari miqdoridagi daromadlarini soliqdan ozod qilish tartibi belgilangan. Daromad solig‘idan chegirmalar tizimiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak soliq to‘lovchining professional va oliy ta‘lim tashkilotlarida o‘qishi uchun to‘langan kontrakt to‘lovlari, olingan ipoteka kreditlarini qaytarish uchun to‘langan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 80 baravari miqdoridagi to‘lovlar, farzandlarining xususiy bog‘cha va maktablarda ta‘lim olishi uchun to‘lanadigan oyiga qat‘iy 3 million so‘mgacha to‘lovlar soliqdan ozod etilishi belgilab qo‘yilgan.

---

<sup>160</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

<sup>161</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son farmoni

**1-jadval**

**Xususiy bog'cha va maktablarga o'tkazilgan to'lovlar uchun soliq solinmaydigan daromad miqdori<sup>162</sup>**

Yillar	Soliq solinmaydigan daromad miqdori	Yillik inflyatsiya darajasi	Ta'lim xizmatlari narxidagi o'sish
2020	3 000 000	11,1 %	4,4%
2021	3 000 000	9,98 %	6,8%
2022	3 000 000	12,3 %	7,5%
2023	3 000 000	8,77 %	2,8%
2024	3 000 000	9,8 %	8%
2025	3 000 000	7,3 %	12,2%

Mazkur qiymat belgilanganiga 6 yil bo'lganligiga qaramasdan, uning miqdori o'zgarimasdan qolmoqda. Biroq, ta'lim sohasidagi xizmatlarning narxida 2021-yildan boshlab hisoblaganda sezilardi darajada o'sganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Daromad solig'i bo'yicha esa bir pog'onali soliq stavkasi amalda bo'lib, 2019-yil 1-yanvardan boshlab progressiv shkalalardan voz kechildi. Soliq solishning ushbu tartibiga o'tish daromad solig'ini hisoblash tartibini soddalashtirgan, soliqning umumiy yukini kamaytirgan bo'lsa-da, soliqqa tortilmaydigan daromad miqdorini bekor qildi. Daromadidan qat'iy nazar bir xil stavkada solish aholining kam daromadli qatlami uchun aksincha nisbatan og'irroq soliq yukining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

**2-jadval**

**2025-yil yanvar-dekabr oylarida xarid cheklari bo'yicha to'langan ijtimoiy keshbek (QQS) summasi<sup>163</sup>**

№	Hudud nomi	Ijtimoiy keshbek summasi	
		Yillik	Dekabr
1	QQR	4 743,0	757,0
2	Andijon	25 584,0	9 665,0
3	Buxoro	3 717,0	686,0
4	Jizzax	4 373,0	744,0
5	Qashqadaryo	7 979,0	1 427,0
6	Navoiy	2 047,0	628,0
7	Sirdaryo	2 549,0	406,0
8	Samarqand	42 012,0	6 196,0
9	Surxondaryo	7 988,0	1 557,0
10	Xorazm	7 742,0	2 918,0
11	Namangan	10 677,0	1 996,0
12	Farg'ona	14 650,0	2 226,0
13	Toshkent sh	31 600,0	6 246,0
14	Toshkent v	18 315,0	5 396,0

Kambag'allikka qarshi iste'mol soliqlari orqali ta'sir o'tkazuvchi soliq mexanizmlarini ko'rib chiqamiz. Soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan stavkalari nazarda tutilmagan. Biroq, 2023-yil 1-maydan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan fuqarolar 9 turdagi ijtimoiy tovarlarni xarid qilganda to'langan QQSni "ijtimoiy keshbek" sifatida qaytarib berish amaliyoti joriy

<sup>162</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>163</sup> Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

etildi. "Ijtimoiy keshbek" bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha bo'lgan xaridlar doirasida qaytarib beriladi.

Soliq qo'mitasi ma'lumotlarga ko'ra 2025-yil yanvar-dekabr oylarida davomida davlat budjetidan 375,6 ming nafar kambag'al oila a'zolari hisoblangan iste'molchilarga 7691,5 ming ta xarid cheklari hisobiga 183,9 mlrd.so'm QQS ijtimoiy keshbek sifatida qaytarib berilgan. 2025-yil yakunlariga ko'ra soliq organlari tomonidan budjetga 45,2 trln. so'm qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari ta'minlangan. Bu esa davlat budjetidan ijtimoiy keshbek sifatida qaytarilgan QQS summasi jami QQS tushumlarining 0,4 foizini tashkil etganini bildiradi (2-jadvalga qarang).

Rasmiy bandlikni rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlaridan ham keng foydalanilmoqda. Soliq kodeksi 483-moddasiga asosan, MHTEKMning 1,5 baravaridan kam bo'lmagan oylik ish haqi to'lab kambag'al oila a'zolarini ishga qabul qilgan korxonalar kambag'al oila a'zolariga to'langan ish haqi bo'yicha ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo'yicha to'laydi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, respublikamiz soliq tizimida kambag'allikni qisqartirish maqsadida nazariy jihatdan foydalanish mumkin bo'lgan barcha soliq mexanizmlari mavjud. Ta'limni rag'batlantirish kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishning eng muhim omillaridan biri ekanligidan kelib chiqqan holda quyidagi soliq mexanizmlarini takomillashtirish taklif qilinadi:

- Nodavlat maktabgacha va maktab ta'limi muassasalariga o'tkazilgan to'lovlar uchun soliqdan ozod qilingan qat'iy miqdordagi summani inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda qayta belgilash;

- Kambag'al oilalar farzandlarini bepul o'qitadigan nodavlat ta'lim muassasalariga ijtimoiy soliqning pasaytirilgan stavkalarini qo'llash

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

*Murojaatnoma (2025). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>*

*Хайдаров, А., & Азимов, А. (2024). ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ В СОЦИАЛНОЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ МАХАЛЛЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономическое развитие и анализ, 2(10), 268-274. <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/59816>*

*Ниязметов И. Солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш орқали солиқ тизими барқарорлигини таъминлаш. Иқт. фан. док.... дисс. автореф //Т.: БМА. – 2018. – Т. 70.*

*Хайдаров А. (2025). 2025. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR TAHLILI. Innovations in Science and Technologies. 2, 3 (May 2025), 248–260.*

*O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy veb-sayti. <https://www.soliq.uz>.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://www.president.uz>*